



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





TURK TARIXSHUNOSLIGIDA JADIDCHILIK HARAKATINING TALQINI VA UNING TURKISTON IJTIMOIIY-SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Tursunova Nozima Sobirjon qizi

Qo'qon davlat universiteti, 1-kurs Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi(tarix) mutaxassisligi magistranti

Nozimaxon0105@gmail.com. +99895-717-39-63

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining Turk tarixshunosligidagi talqinlari hamda uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidchilikning shakllanishi tarixiy jarayonlar, xususan, Temuriylar davridan boshlab Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrigacha bo'lgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq holda yoritiladi. Shuningdek, turk olimlari — A. Kanlidere, I. Maraş, D. Hidraliev, Z. Isroilov va I. Kalkan qarashlari asosida jadidchilikning diniy-falsafiy, modernistik va transmilliy xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada o'zbek va turk tarixshunoslik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, jadidchilikning Turkiston jamiyatidagi milliy uyg'onish va modernizatsiya jarayonlaridagi o'rni ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Turkiston, tarixshunoslik, modernizatsiya, Ismoil Gasprinskiy, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy islohotlar, transmilliy jarayon, milliy uyg'onish.

Markaziy Osiyo tarixida jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan eng muhim ijtimoiy-madaniy hodisalardan biri hisoblanadi. Ushbu harakatning shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ildizlari o'rta asrlardagi siyosiy va madaniy taraqqiyotga borib taqaladi. Xususan, Saljuqiylar davlati hamda keyinchalik Usmoniylar imperiyasi tomonidan yaratilgan umumturkiy siyosiy-madaniy makon turkiy xalqlarning ilmiy va intellektual rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Anqara jangi (1402) natijasida yuzaga kelgan siyosiy o'zgarishlar va keyinchalik Usmoniylar davlatining qayta tiklanishi Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi.(1.31-39).

Temuriylar davrida esa Markaziy Osiyo ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar faoliyati natijasida mintaqa umummusulmon ilmiy makonining yetakchi markazlaridan biriga aylandi. Biroq keyinchalik siyosiy parokandalik, ayniqsa Shayboniylar davrining so'nggi bosqichlarida ilmiy muhitning zaiflashuvi kuzatildi. Bu jarayon XIX asrga kelib yanada chuqurlashdi va Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston hududining bosib olinishi natijasida mustamlakachilik tizimi o'rnatildi. Natijada an'anaviy ta'lim tizimi inqirozga yuz tutib, jamiyatda yangi islohotlarga ehtiyoj kuchaydi. Aynan shu tarixiy sharoit jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo'ldi.

Jadidchilikni ilmiy jihatdan o'rganishda turk tarixshunosligida muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Ahmet Kanlidere o'zining "Kadim ile Cedid Arasında Musa Carullah" asarida Musa Jarullah Bigiev faoliyati orqali





jadidchilikning diniy-falsafiy asoslarini tahlil qiladi. Muallif jadidchilikni faqat ma'rifiy yoki dunyoviy harakat sifatida emas, balki islomiy tafakkurni yangilashga qaratilgan intellektual jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, jadidlar Qur'on va sunnaga qaytish orqali diniy bilimlarni tozalash va zamon talablariga moslashtirishga intilganlar. Bu yondashuv jadidchilikning diniy komponentini ochib berishi bilan ahamiyatlidir(2.15).

Shu bilan birga, İbrahim Maraş o'zining "İdil-Ural Türklerinde Ceditçilik Hareketi (1850–1917)" nomli tadqiqotida jadidchilikni "tajdid" tushunchasi orqali izohlaydi. Unga ko'ra, "tajdid" ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi: bir tomondan yangilanish (modernizatsiya), ikkinchi tomondan esa asl manbalarga qaytish (ihyo). Bu yondashuv jadidchilikni murakkab va ko'p qatlamli fenomen sifatida ko'rsatadi. Marashning ushbu nazariy qarashi jadidchilikni faqat G'arb ta'siri mahsuli sifatida talqin qiluvchi qarashlarga qarshi muhim ilmiy dalil bo'lib xizmat qiladi(3.22).

Turk tarixshunosligida jadidchilikni kengroq tarixiy kontekstda o'rganishga alohida e'tibor qaratgan olimlardan biri Darhan Hidraliev hisoblanadi. U o'z tadqiqotida jadidchilikni faqat Turkiston hududidagi ichki harakat sifatida emas, balki Rossiya–Turkiston–Usmoniy makonidagi transmilliy intellektual jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, jadidchilik uch asosiy omil bilan belgilanadi: modernizatsiya harakati, mustamlakachilikka qarshi javob reaksiyasi va umumturkiy fikriy uyg'onish jarayoni. Bu yondashuv jadidchilikni global tarixiy jarayonlar bilan bog'lash imkonini beradi(4.65-66).

Boshqa bir turk olimi Zahitbek Isroilov esa jadidchilikni diniy reformizm bilan aynanlashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. U o'zining "Türkistan Ceditlerinin Dini Görüşleri" asarida jadidchilikni mustaqil modernistik harakat sifatida baholab, uni avvalgi diniy islohotchilar — Kursaviy va Marjoniy faoliyatidan ajratib ko'rsatadi. Muallifning ta'kidlashicha, mazkur ulamolar asosan diniy tejdit doirasida faoliyat yuritgan bo'lsa, jadidlar esa ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ijtimoiy ongni o'zgartirish va yangi jamiyat modelini shakllantirishga intilganlar. Bu yondashuv jadidchilikni tarixiy jihatdan aniqroq davrlashtirish imkonini beradi(5.34-35).

Shuningdek, İbrahim Kalkan jadidchilikni "mahalliy modernizatsiya modeli" sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, jadidchilik G'arbn ko'r-ko'rona takrorlash emas, balki mahalliy ehtiyojlar va sharoitlarga moslashtirilgan islohot harakatidir. Bu yondashuv jadidchilikni mustaqil taraqqiyot yo'li sifatida baholash imkonini beradi(6.12).

O'zbek tarixshunosligida esa jadidchilik harakati asosan milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va mustamlakachilikka qarshi kurash kontekstida o'rganiladi. Bu borada D. Alimova, B. Qosimov, N. Karimov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jadidchilikni Turkiston jamiyatining ichki ehtiyojlari natijasida yuzaga kelgan harakat sifatida talqin qilib, uning milliy taraqqiyotdagi o'rnini alohida ta'kidlaydilar.





Mazkur ikki tarixshunoslik maktabi o'rtasidagi farq jadidchilikning mohiyatini tushunishda yaqqol namoyon bo'ladi. Turk tarixshunosligida jadidchilik ko'proq transmilliy va nazariy fenomen sifatida talqin qilinsa, o'zbek tarixshunosligida u milliy uyg'onish va ijtimoiy islohotlar harakati sifatida baholanadi. Masalan, Ismail Gasprinskiy turk tarixshunosligida markaziy figura sifatida ko'rilsa, o'zbek tarixshunosligida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mahalliy jadidlar faoliyati ustuvor o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, jadidchilik harakatining rivojlanishida matbuotning roli ham nihoyatda muhim bo'lgan. Gazeta va jurnallar orqali yangi g'oyalar keng ommaga tarqalib, jamiyatda fikriy uyg'onish yuzaga kelgan. Bu esa jadidchilikni faqat ta'lim islohoti emas, balki keng qamrovli ijtimoiy-madaniy modernizatsiya jarayoni sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati murakkab, ko'p qirrali va ko'p qatlamli tarixiy hodisa bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi turli tarixiy omillar bilan bog'liqdir. Turk tarixshunosligi ushbu harakatni keng nazariy va transmilliy kontekstda tahlil qilgan bo'lsa, o'zbek tarixshunosligi uning milliy va amaliy jihatlarini chuqurroq yoritadi. Shu bois jadidchilikni to'liq anglash uchun ushbu ikki yondashuvni uyg'un holda o'rganish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. İnalçık, Halil İnalçık. The Ottoman Empire: The Classical Age, 1300–1600. London: Phoenix Press, 1973, s. 9–25
2. Kanlidere, Ahmet Kanlidere. Kadim ile Cedid Arasında Musa Carullah: Hayatı, Eserleri, Fikirleri. İstanbul: İletişim Yayınları, 1997, s.15.
3. Maraş, İbrahim Maraş. İdil-Ural Türklerinde Cedidçilik Hareketi (1850–1917). Doktora Tezi. Ankara, 2000. s.22.
4. Hidraliev, Darhan Hidraliev. Türkistan'da Cedidçilik Hareketi ve Türkiye ile İlişkileri. Ankara: (nashriyot ko'rsatilmagan), 2010. s.65-66.
5. Isroilov, Zahitbek Isroilov. Türkistan Cedidlerinin Dini Görüşleri. İstanbul: Ensar Neşriyat, 2015. s.16.
6. Kalkan, İbrahim Kalkan. "Cedidçilik ve Modernleşme Sorunları Üzerine". Türk Dünyası Araştırmaları, 2012, №3.s.12.

